



**O'ZBEKISTONDA YURIDIK FAN VA ADLIYA TIZIMI RIVOJLANISHIDA
XOTIN-QIZLARNING O'RNI: X.SULAYMONOVA, M.VOSIQOVA VA
H.MUHITDINOVA FAOLIYATI MISOLIDA**

Jumaboyeva Anbaroy Azamat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti 3-bsoqich talabasi

@anbaroyjumaboyeva916gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy huquqshunoslik maktabining shakllanishi, yuridik fan va adliya tizimining rivojlanishida xotin-qizlarning tutgan o'rni hamda qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. O'zbek huquqshunosligining uch yirik namoyandasi - akademik Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova va professor Halima Muhitdinovalarining hayoti, ilmiy-pedagogik va davlat boshqaruvidagi faoliyati o'rganilgan. Maqolada ushbu olimlarning qonun ijodkorligi, sud-ekspertiza tizimini rivojlantirish va fuqarolik huquqi sohasidagi fundamental tadqiqotlarining ahamiyati ochib berilgan bo'lib, ular ifoda etgan boy meros bugungi kun yosh huquqshunoslari uchun kasbiy motivatsiya manbai sifatida baholangan.*

Kalit so'zlar: *yuridik fan, adliya tizimi, xotin-qizlar yetakchiligi, Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova, Halima Muhitdinova, qonun ustuvorligi, fuqarolik huquqi, sud-ekspertizasi, huquqiy meros.*

Abstract: *This article analyzes the development of the national school of law, legal science, and the justice system in Uzbekistan, focusing on the role and contributions of women. Academician Khadicha Sulaymanova, Minister Mamlakat Vasikova, and Professor Halima Mukhitdinova - three prominent figures in Uzbek jurisprudence-are the primary subjects of this study. Their lives, academic-pedagogical activities, and public administration roles are thoroughly examined. The article highlights the significance of their fundamental research in law-making, the development of the forensic science system, and civil law. Furthermore, their rich legal heritage is evaluated as a crucial source of professional motivation for contemporary young legal professionals.*

Keywords: *legal science, justice system, women's leadership, Khadicha Sulaymanova, Mamlakat Vasikova, Halima Mukhitdinova, rule of law, civil law, forensic science, legal heritage.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и вклад женщин в становление национальной юридической школы, развитие правовой науки и системы юстиции в Узбекистане. В качестве объекта исследования рассматриваются жизнь, научно-педагогическая деятельность и роль в государственном управлении трех крупнейших представительниц узбекской юриспруденции - академика Хадичи Сулаймановой, министра Мамлакат Васиковой и профессора Халимы Мухитдиновой. В статье раскрывается значение их фундаментальных исследований в области*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



законотворчества, развития системы судебной экспертизы и гражданского права, а их богатое наследие оценивается как источник профессиональной мотивации для современных молодых юристов.

Ключевые слова: *юридическая наука, система юстиции, женское лидерство, Хадича Сулайманова, Мамлакат Васикова, Халима Мухитдинова, верховенство закона, гражданское право, судебная экспертиза, правовое наследие.*

KIRISH

Davlat boshqaruvi va huquqiy tizimlarning barqaror rivojlanishi jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, xotin-qizlarning qonun ijodkorligi hamda yuridik fan sohasidagi faol ishtiroki bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan bo'lsa-da, ushbu jarayon tarixiy, ilmiy va institutsional poydevori o'tgan asrning o'rtalarida shakllangan milliy huquqshunoslik maktabiga borib taqaladi. Ko'pchilik o'zbek yuridik fani faqat quruq qonunlar to'plamidan iborat deb o'ylashi mumkin, biroq milliy huquq tizimining shakllanishi, zamonaviy sud-ekspertiza muassasalarining tashkil etilishi hamda fuqarolik huquqi sohasidagi fundamental tadqiqotlarning poydevori aynan o'zbek olimlarining matonati va tinimsiz mehnati bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixga nazar tashlasak, milliy huquq tizimimizning murakkab shakllanish davrlarida barcha qiyinchiliklarni yengib o'tgan uch buyuk shaxs - akademik Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova va professor Halima Muhitdinovalarining o'rni beqiyos ekanini ko'ramiz. Ular nafaqat o'z davrining yetakchilari bo'lishgan, balki bugungi kunda yuridik universitetlar auditoriyalarida tahsil olayotgan har bir talaba, ayniqsa, kelajakda adolatni himoya qilmoqchi bo'lgan bo'lajak huquqshunos qizlar uchun haqiqiy motivatsiya maktabidir. Ushbu tadqiqot ishida tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy o'rganish, biografik tizimlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni manbaviy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonda yuridik fanning ilk shakllanish bosqichlari, qonunchilik tizimini unifikatsiya qilish, ya'ni birxillashtirish jarayonlari hamda o'tgan asrning 40-80-yillaridagi adliya tizimi faoliyati olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda professional yuridik fanning va sud-ekspertiza sohasining fundamental poydevori aynan akademik Xadicha Sulaymonova tomonidan qo'yilgan. Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyunda Andijon shahrida tug'ilgan bo'lib, o'z davrining ijtimoiy qiyinchiliklariga qaramay, 1935-yilda Toshkent sovet qurilishi va huquq institutini muvaffaqiyatli tamomlaydi. Ilm-fanga bo'lgan cheksiz ishtiyoqi tufayli u 1938–1941-yillarda Moskva yuridik institutining aspirantura bosqichida jinoiy huquq yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Urush yillaridagi og'ir sharoitlardan so'ng, 1945-yil 12-dekabrda Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Olimaning eng katta tarixiy g'alabalaridan biri 1950-yilda o'zbek ayollari orasida birinchi bo'lib yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olishi va professor unvoniga ega bo'lishidir. Uning ushbu yutug'i butun O'rta Osiyo ayollari





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



uchun yuridik ilm eshiklarini ochib berdi. 1956-yilda u O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, ya'ni akademigi etib saylandi. Xadicha Sulaymonovanning faoliyati faqat nazariya bilan cheklanib qolmadi, u amaliyotda ham ulkan natijalarni qayd etdi; xususan, 1956-1958-yillarda O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi, 1958-1964-yillarda esa Adliya vaziri lavozimlarida ishladi. U vazirlik qilgan yillarda respublika qonunchilik tizimini tubdan isloh qilish, yangi jinoyat va fuqarolik kodekslarini ishlab chiqish jarayonlariga bevosita rahbarlik qildi. Eng muhimi, uning tashabbusi bilan 1950-yilda asos solingan Jinoyat-prosessual tadqiqotlar va kriminalistika laboratoriyasi 1958-yilda Respublika sud-ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirildi va bu muassasa bugungi kunda ham olimaning nomi bilan yuritilib, adliya tizimining eng tayanch nuqtalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda; ushbu buyuk olimani 1965-yil 26-noyabrda Toshkentda vafot etdi.

Davlat boshqaruvi, qonun ijodkorligi va adliya tizimining tarkibiy shakllanishida navbatdagi eng yuqori natijalar Mamlakat Vosiqova faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. 1924-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan Mamlakat Vosiqova Toshkent yuridik institutini tamomlagach, mehnat faoliyatini prokuratura va sud organlarida oddiy xodimlikdan boshlab, professional yurist sifatida tezda ko'zga tashlanadi. U O'zbekiston adliya tizimida rekord darajadagi natijani qayd etib, 1970-yildan 1989-yilgacha - deyarli yigirma yil davomida Adliya vaziri lavozimida uzluksiz va samarali faoliyat ko'rsatdi. M.Vosiqova rahbarlik qilgan ushbu davrda respublikada barcha sohalardagi qonun loyihalarini tayyorlash mexanizmi yaratildi, aholining huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli targ'ibot ishlari yo'lga qo'yildi va sudlarning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi. Shuningdek, u Toshkent davlat universitetining yuridik fakulteti moddiy bazasini kuchaytirish va milliy kadrlar, sudyalarni hamda advokatlar korpusini shakllantirishga shaxsan homiylik va rahbarlik qildi; u o'zining sermahsul umridan so'ng 2012-yilda vafot etdi.

Ushbu tizimning davomiyligini ta'minlash va milliy fuqarolik huquqi maktabining ilmiy-pedagogik poydevorini qurish bo'yicha eng yirik natijalar professor Halima Muhitdinova nomi bilan bog'liqdir. 1923-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan Halima Muhitdinova urushdan keyingi murakkab yillarda huquqshunoslik ta'limini olib, o'zbek yoshlariga milliy qonunchilik asoslaridan dars berishni o'zining hayotiy burchi deb bildi. U uzoq yillar davomida Toshkent davlat yuridik instituti va Fanlar akademiyasi tizimida professorlik qilib, fuqarolik huquqi, oila huquqi, mulkiy munosabatlar va shartnoma majburiyatlari sohasida birinchi tizimli mahalliy darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilmiy monografiyalarni tayyorladi. H.Muhitdinova bugungi kunda respublika sud-huquq tizimida, vazirlik va idoralarda, shuningdek, ilmiy kafedralarda faoliyat yuritayotgan yuzlab yuqori malakali yuristlar, sudyalarni va professorlarning ustozlari bo'lib, o'zbek qizlarini huquq ilmiga jalb qilishda chinakam ilmiy maktab yaratdi va 2003-yilda vafot etdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari va aniqlangan tarixiy faktlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova va Halima Muhitdinovalarning faoliyati shunchaki alohida shaxslarning biografik ma'lumotlari to'plami emas, balki O'zbekistonda zamonaviy huquqiy davlat va adliya tizimini qurish yo'lidagi uzviy bog'langan institutsional transformatsiya bosqichlaridir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbek huquqshunosligida ularning har biri muayyan bir strategik vazifani bajarganini anglaymiz. Xadicha Sulaymonovaning 1940-1950-yillardagi faoliyati milliy yuridik fanning fundamental poydevorini qo'yish, jinoiy-huquqiy prinsiplarni hamda sud-ekspertizasi sohasini ilmiy jihatdan asoslab berishga xizmat qildi. U o'zining akademik salohiyati bilan o'zbek xalqining intellektual darajasi naqadar yuqori ekanligini xalqaro miqyosda isbotladi. Navbatdagi bosqichda esa, Mamlakat Vosiqovaning 1970-1980-yillardagi qariyb yigirma yillik vazirlik faoliyati Xadicha Sulaymonova tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy asoslarni bevosita davlat boshqaruvi, qonun ijodkorligi va kundalik amaliyot darajasiga olib chiqdi, tizimni to'liq oyoqqa turgazdi. Halima Muhitdinovaning ilmiy-pedagogik maktabi esa ushbu qurilgan ulkan huquqiy binoning uzluksiz va bezavol ishlashi uchun eng zarur bo'lgan narsani - intellektual bazani, ya'ni yuqori malakali yosh kadrlar avlodini hamda fuqarolik-huquqiy madaniyatni shakllantirib berdi. Agar Halima Muhitdinova yosh yuristlarga ilm bermaganida, Xadicha Sulaymonova qurgan va Mamlakat Vosiqova rivojlantirgan tizim o'z kadrlar uzviylikini yo'qotib qo'ygan bo'lar edi. Demak, bu uch buyuk olmaning faoliyati bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi va milliy huquq tizimimizning barqarorligini ta'minlaydi. Ularning bizga qoldirgan boy ilmiy va amaliy merosi nafaqat tarixiy sahifa, balki bugungi kunda zamonaviy yuridik ta'lim tizimida professional standartlarni belgilash, qonun ustuvorligini ta'minlash hamda davlat organlarida xotin-qizlar yetakchiligini metodologik jihatdan to'g'ri shakllantirish uchun eng asosiy va toza manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Sakkizinchi jild – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 113. ("Sulaymonova Xadicha" hayoti).
2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Uch mashhur O'zbek ayoli. Toshkent: Sudyalar oliy kengashi nashriyoti, 2022,-23-40b
3. Сулайманова Х. С. История советского государства и права Узбекистана (1917–1924 гг.). – Ташкент: Изд-во Академии наук УзССР, 1960. – 351 с.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy elektron portali (minjust.uz). "Vazirlik tarixi" va "Sobiq vazirlar" bo'limlari. (X. Sulaymonova va M. Vosiqovaning vazirlik yillari xronologiyasi).
5. Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertizasi markazi rasmiy veb-sayti (sudex.uz). "Markaz tarixi" bo'limi. (1950-yilda laboratoriya ochilishi va 1958-yilda uning institutga aylantirilishi haqidagi rasmiy arxiv ma'lumotlari).

